INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Ilmiy rahbar: **Meliyeva Gulnoza**
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti o’qituvchisi

Maxmudova Zilolaxon Mansurbek qizi
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
Magistratura 1-kurs talabasi
Email: makhmudovazilolakhan@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0002-9787-200X/print

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy **maqsadi** frazeologik birliklar orqali har ikki xalqning milliy-madaniy dunyoqarashi, tafakkuri va mentalitetini aniqlash hamda ularning til va madaniyat uyg‘unligidagi o‘rnini yoritishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun frazeologiya va lingvokulturologiya tushunchalarining nazariy asoslarini tahlil qilish, o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarni mazmuniy va madaniy jihatdan qiyoslash hamda ularni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash **vazifalari** belgilandi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy-tahliliy, semantik hamda lingvokulturologik tahlil **metodlaridan** foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar, badiiy asarlar, ilmiy manbalar hamda lug‘atlardan olingan misollar asos qilib olindi. Frazeologik birliklarning tarkibida aks etgan milliy-madaniy komponentlar har ikki til misolida tahlil qilindi. Tadqiqot **natijalari** shuni ko‘rsatdiki, frazeologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, an’analari va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar o‘rtasida o‘xshashliklar bilan bir qatorda, madaniy tafovutlar bilan bog‘liq farqlar ham mavjudligi aniqlandi. Ayniqsa, ushbu birliklarni tarjima qilish jarayonida milliy-madaniy ma’noni to‘liq saqlab qolish muhim masala ekanligi kuzatildi. **Xulosa** qilib aytganda maqola natijalari frazeologiya, lingvokulturologiya va tarjima nazariyasi sohalarida olib boriladigan tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, chet tillarini o‘qitish jarayonida ham samarali qo‘llanishi mumkin.

Kalit so’zlar: frazeologizmlar, metafora, semantik struktura, lingvistika, madaniy obrazlar, til va madaniyat.

LINGUOCULTURAL FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK

Abstract

This article studies the linguocultural characteristics of phraseological units in the Uzbek and English languages in a comparative manner. The main goal of the study is to determine the national-cultural worldview, thinking and mentality of both peoples through phraseological units and to highlight their place in the harmony of language and culture. To achieve this goal, the tasks of analyzing the theoretical foundations of the concepts of phraseology and linguoculturalism, comparing phraseological units in the Uzbek and English languages in terms of content and culture, and identifying problems that arise in the process of translating them were set. Descriptive, comparative-analytical, semantic and linguocultural analysis methods were used in the research process. Phraseological units in the Uzbek and English languages, examples from literary works, scientific sources and dictionaries were taken as the basis for the research material. The national-cultural components reflected in the structure of phraseological units were analyzed on the example of both languages. The results of the study showed that phraseological units embody the historical experience, customs, traditions and cultural values of the people. Along with the similarities between phraseological units in English and Uzbek, it was found that there are also differences associated with cultural differences. In particular, it was observed that it is

important to fully preserve the national-cultural meaning in the process of translating these units. The results of the article are of theoretical and practical importance for research in the fields of phraseology, linguoculturology and translation theory, and can also be effectively used in the process of teaching foreign languages.

Keywords: phraseological units, metaphor, semantic structure, linguistics, cultural imagery, language and culture.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье в сравнительном ключе изучаются лингвокультурные характеристики фразеологических единиц узбекского и английского языков. Главная цель исследования – определить национально-культурное мировоззрение, мышление и менталитет обоих народов посредством фразеологических единиц и подчеркнуть их место в гармонии языка и культуры. Для достижения этой цели были поставлены задачи анализа теоретических основ понятий фразеологии и лингвокультурализма, сравнения фразеологических единиц узбекского и английского языков по содержанию и культуре, а также выявления проблем, возникающих в процессе их перевода. В процессе исследования использовались описательные, сравнительно-аналитические, семантические и лингвокультурные методы анализа. В качестве материала исследования были взяты фразеологические единицы узбекского и английского языков, примеры из литературных произведений, научных источников и словарей. На примере обоих языков были проанализированы национально-культурные компоненты, отраженные в структуре фразеологических единиц. Результаты исследования показали, что фразеологические единицы отражают исторический опыт, обычаи, традиции и культурные ценности народов. Наряду со сходством фразеологических единиц в английском и узбекском языках, были обнаружены и различия, связанные с культурными особенностями. В частности, было отмечено, что при переводе этих единиц важно в полной мере сохранять их национально-культурное значение. Результаты статьи имеют теоретическое и практическое значение для исследований в области фразеологии, лингвокультурологии и теории перевода, а также могут быть эффективно использованы в процессе преподавания иностранных языков.

Ключевые слова: фразеологизмы, метафора, семантическая структура, лингвистика, культурные образы, язык и культура.

KIRISH

So‘nggi yillarda tilshunoslikda til birliklarini faqat lingvistik tizim doirasida emas, balki ularning madaniyat, tafakkur va milliy dunyoqarash bilan uzviy bog‘liqligini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bugungi globallashuv jarayonida tillar nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning madaniyati, dunyoqarashi va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois tilni madaniyat bilan bog‘liq holda o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Til insonning borliqni idrok etish usuli sifatida uning tarixiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Har bir xalqning tilida uning asrlar davomida shakllangan tafakkuri, urf-odatlari va dunyoqarashi mujassam bo‘ladi. Bu jihatdan qaralganda, frazeologik birliklar tilning eng muhim va mazmunan boy qatlamlaridan biri sanaladi. Frazeologik birliklar nutqda tayyor holda qo‘llanib, fikrning obrazli va ta’sirchan ifodalanishini ta’minlaydi hamda xalqning milliy tafakkuri va madaniy xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Aynan shu sababli frazeologik birliklar til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Yurtimizda xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan talab yil sayin ortib borayotgani, shu bilan birga o‘zbek tilini o‘rganayotgan xorijiy fuqarolar sonining ko‘payib borayotgani o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada oshirmoqda. O‘zbek tilining rivoji va boyishida ajdodlarimizning beqiyos hissasi borligi, ularning ilmiy va badiiy merosi bugungi kunda ham jahon hamjamiyatining e’tiborini

tortib kelayotgani alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu asarlar orqali xalqimizning madaniyati, tafakkuri va ma'naviy qadriyatlari til vositasida namoyon bo'ladi.

Tilning jamiyat hayotidagi o'rni va uning inson tafakkuriga ko'rsatadigan ta'siri masalasi tilshunoslik va adabiyotshunoslikda muhim mavzulardan biri bo'lib kelgan. O'zbek adabiy va ma'naviy merosida tilning ahamiyati Alisher Navoiy asarlarida keng yoritilgan bo'lib, unda so'zning kuchi va mas'uliyati masalalari muhim o'rin egallaydi [Navoiy A., 1991; 45-47]. Bu holat til birliklarini, xususan frazeologik birliklarni tizimli ravishda o'rganish zaruratini ko'rsatadi.

Frazeologiya atamasi yunon tilidagi phrasis ("ifoda") va logos ("o'rganish") so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, tilning barqaror iboraviy birliklarini o'rganadi [Nurmatov A.M., 2015; 25-27]. Frazeologik birliklar tilshunoslikda barqaror leksik birliklar sifatida qaraladi va ularning umumiy ma'nosi tarkibidagi so'zlarning alohida qo'llanishidan kelib chiqadigan ma'nodan farq qilishi bilan tavsiflanadi [Vinogradov V.V., 1977; 89-92].

Frazeologik birliklar nafaqat tilning leksik boyligini, balki xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va milliy tafakkurini ham o'zida mujassamlashtiradi. Til va madaniyatning o'zaro uyg'unligi eng yaqqol tarzda aynan frazeologik birliklarda namoyon bo'ladi. Shu sababli ularni boshqa tilga tarjima qilish va mazmunini to'liq yetkazib berish murakkab va mas'uliyatli jarayon hisoblanadi [Jumayev B., 2018; 41-44].

Frazeologik birliklar masalasi tilshunoslikda uzoq yillardan buyon o'rganib kelinayotgan bo'lsa-da, so'nggi tadqiqotlarda ularni lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuv frazeologizmlar tarkibida milliy-madaniy komponentlar, tarixiy tajriba va ijtimoiy qarashlar aks etishini aniqlash imkonini beradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganish esa tillararo o'xshashlik va farqlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi [Nurmatov A.M., 2015; 33-35].

Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari ko'pincha umumiy tarzda yoritilgan bo'lib, ularning o'zaro moslik darajasi, milliy-madaniy jihatdan farqlanishi hamda tarjimada yuzaga keladigan muammolar yetarli darajada tizimli ravishda tahlil qilinmagan. Ayniqsa, frazeologik birliklarda obrazlilikning saqlanishi masalasi chuqurroq tadqiq etishni talab qiladi.

Mazkur holatlar ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarni qiyosiy va lingvokulturologik asosda tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu asosda ushbu tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning milliy-madaniy mazmunini aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: frazeologik birliklarning nazariy asoslarini aniqlash; ingliz va o'zbek tillaridagi tanlab olingan frazeologik birliklarni semantik jihatdan tahlil qilish; ularning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash; frazeologik birliklarning tarjimada yuzaga keladigan muammolarini ko'rsatib berish.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash va qiyosiy tahlil qilish maqsadida tavsifiy, qiyosiy-tahliliy, semantik hamda lingvokulturologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida frazeologiya sohasida yaratilgan klassik va zamonaviy ilmiy manbalarga tayanildi.

Frazeologik birliklarning tasnifi va ularning til tizimidagi o'rnini aniqlashda V. V. Vinogradovning "Русский язык" asarida ilgari surilgan frazeologik birliklarni frazeologik birikmalar, frazeologik butunliklar va frazeologik chatishmalarga ajratish tamoyillari metodologik asos sifatida qo'llanildi [Vinogradov V.V., 1977; 84-92].

Ingliz tili frazeologiyasining strukturaviy va semantik xususiyatlarini tahlil qilishda A. I. Smirnitskiyning "Лексикология английского языка" asarida bayon etilgan nazariy qarashlarga tayandik [Smirnitskiy A.I., 1956; 201-210].

O'zbek tilidagi frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini yoritishda o'zbek tilshunosligida frazeologiya va tarjima masalalarini tadqiq etgan G'aybulla Salomovning "Tarjima nazariyasi asoslari", Shavkat Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" hamda

Abdug‘afur Madvaliyev tahriri ostida yaratilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” materiallaridan foydalanildi [Salomov G‘., 1983; 56-60; Rahmatullayev Sh., 2008; 7-12; Madvaliyev A., 2006; 15-18]. Ushbu manbalar frazeologik birliklarning semantik va madaniy qatlamlarini aniqlashda muhim asos bo‘lib xizmat qildi.

Bundan tashqari, frazeologik birliklarning lingvokulturologik jihatlarini ochib berishda B. X. Jumayevning frazeologiya va frazeologik birliklarga oid ilmiy qarashlari tadqiqotda nazariy tayanch sifatida qo‘llanildi [Jumayev B.X., 2018; 39-44].

Tadqiqot materiali sifatida o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar, frazeologik lug‘atlar, badiiy asarlar hamda ilmiy manbalardan olingan misollar tanlab olinib, qiyosiy va lingvokulturologik tahlil asosida o‘rganildi. Tanlangan frazeologik birliklar til tizimida barqaror qo‘llanishga ega bo‘lishi, ko‘chma ma’no ifodalashi hamda nutqda obrazlilik yaratish xususiyatlariga ko‘ra saralandi. Ushbu yondashuv tadqiqot materialining tasodifiy emas, balki ilmiy asoslangan mezonlar asosida shakllantirilishini ta’minladi.

Tadqiqotda frazeologik birliklarning turli semantik sohalarga mansubligi inobatga olindi. Jumladan, insonning hissiy holati, xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlari, mehnat faoliyati hamda hayotiy tajribasini ifodalovchi birliklar alohida guruh sifatida ko‘rib chiqildi. Bu esa frazeologik birliklarning til vositasi sifatidagi funksional imkoniyatlarini yanada kengroq yoritish imkonini berdi.

Materiallarni tanlash jarayonida frazeologik birliklarning kontekstual qo‘llanishi muhim omil sifatida belgilandi. Badiiy matnlardan olingan misollar orqali frazeologik birliklarning obrazlilik va emotsional-ekspressiv vazifalari aniqlansa, ilmiy va publitsistik matnlar misolida ularning neytral yoki baholovchi ma’nodagi qo‘llanish xususiyatlari kuzatildi. Natijada frazeologik birliklarning nutq turlariga moslashuvchanligi va stilistik imkoniyatlari aniqlab olindi.

Qiyosiy tahlil doirasida ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning semantik yadrosi, obraz manbai va ifoda shakli o‘zaro solishtirildi. Bu jarayonda ayrim frazeologik birliklarning mazmun jihatidan umumiylikka ega ekani, biroq ularning obraz asoslari turli madaniy omillarga tayanganligi aniqlandi. Shu bilan birga, ba’zi frazeologik birliklar faqat ma’lum bir milliy-madaniy muhit doirasida shakllangan bo‘lib, boshqa tilda to‘liq ekvivalentga ega emasligi kuzatildi.

Lingvokulturologik tahlil frazeologik birliklarning madaniy axborot tashuvchi birlik sifatidagi ahamiyatini aniqlashga qaratildi. Ushbu tahlil jarayonida frazeologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, urf-odatlari va dunyoqarashi bilan bog‘liq holda talqin qilindi. Natijada frazeologik birliklar til tizimining tarkibiy qismi bo‘lish bilan birga, madaniy xotirani aks ettiruvchi vosita sifatida ham namoyon bo‘lishi aniqlab olindi.

Shuningdek, tadqiqot materiallari asosida frazeologik birliklarning tarjimada ifodalanish xususiyatlari ham kuzatildi. Ayrim birliklarning boshqa tilda muqobil vositalar orqali ifodalanishi, ayrim hollarda esa izohli yoki tavsifiy tarjimani talab qilishi qayd etildi. Bu holat frazeologik birliklarni o‘rganishda lingvokulturologik yondashuv bilan bir qatorda tarjima nuqtayi nazarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

MUNOZARA

Mazkur munozara bo‘limida tadqiqot doirasida tanlab olingan 15 ta frazeologik birlik har biri alohida tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida frazeologik birliklarning semantik tuzilishi, obraz manbai, lingvokulturologik mazmuni hamda nutqdagi funksional vazifalari izchil yoritiladi. Ushbu yondashuv frazeologik birliklarni faqat leksik hodisa sifatida emas, balki madaniy va kognitiv birlik sifatida talqin qilish imkonini beradi.

To skate on thin ice frazeologik birligi xavfli va beqaror vaziyatda ish tutishni ifodalaydi. Semantik tahlil shuni ko‘rsatadiki, ushbu birlikda asosiy semalar sifatida xavf, noaniqlik va ehtiyotkorlik ajralib turadi. Muz obrazi beqaror tayanchni anglatib, har qanday noto‘g‘ri harakat salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini bildiradi. Ingliz tilida mazkur birlik ogohlantiruvchi va baholovchi funksiyani bajaradi.

To carry coals to Newcastle frazeologik birligi mantiqsiz yoki ortiqcha ish qilish ma’nosini anglatadi. Ushbu birlik tarixiy-madaniy bilimga tayanadi, chunki Newcastle shahri ko‘mir ishlab

chiqarish bilan mashhur bo‘lgan. Semantik jihatdan birlik ortiqchalik va behudalikka ishora qiladi hamda kinoyaviy ifoda vositasi sifatida qo‘llaniladi.

To steal someone’s thunder frazeologik birligi birovning yutug‘i yoki g‘oyasini o‘zlashtirishni bildiradi. Bu birlik ijtimoiy raqobat, baholash va salbiy munosabat semalarini o‘z ichiga oladi. Lingvokulturologik jihatdan u shaxsiy muvaffaqiyat va individual yutuqlarga beriladigan yuqori bahoni aks ettiradi.

To let the cat out of the bag frazeologik birligi sirni bilmasdan oshkor qilish holatini ifodalaydi. Ushbu birlikda hayvon obrazi orqali maxfiylik tushunchasi beriladi. Semantik tahlil birlikning tasodifiylik va ehtiyotsizlik bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

To bark up the wrong tree frazeologik birligi noto‘g‘ri taxmin qilish yoki aybni noto‘g‘ri tomondan qidirishni anglatadi. Ovchilik bilan bog‘liq obraz asosida shakllangan ushbu birlik kognitiv xatoni ifodalovchi vosita sifatida qo‘llaniladi.

To have skeletons in the closet frazeologik birligi yashirin ayb yoki sirli o‘tmishga ega bo‘lishni bildiradi. Skelet obrazi qo‘rquv va yashirinlik semalarini ifodalaydi. Bu birlik ingliz madaniyatida shaxsiy hayot daxlsizligiga bo‘lgan munosabatni aks ettiradi.

To draw the short straw frazeologik birligi omadsiz tanlovga tushib qolishni anglatadi. Ushbu birlik tasodif va adolatsizlik tushunchalari bilan bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy jarayonlardagi tengsizlikni obrazli ifodalaydi.

To keep someone at arm’s length frazeologik birligi ijtimoiy masofani saqlashni bildiradi. Semantik jihatdan bu birlik ehtiyotkorlik va shaxsiy hudud tushunchalariga asoslanadi hamda ingliz jamiyatida individual masofaga bo‘lgan ehtiyojni ko‘rsatadi.

Ko‘ngli ko‘tarilmaslik frazeologik birligi insonning ruhiy holati pasayganini ifodalaydi. Ushbu birlik emotsional-ekspressiv semantikaga ega bo‘lib, o‘zbek tilida hissiy holatlarni nozik tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

Yuragi orqasiga tortmoq frazeologik birligi qo‘rquv holatini ifodalaydi. Jismoniy a’zoga murojaat qilish orqali hissiy holatni ifodalash o‘zbek frazeologiyasiga xos bo‘lgan hodisa hisoblanadi.

Og‘zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi frazeologik birligi avvalgi salbiy tajriba asosida ehtiyotkorlikni bildiradi. Ushbu birlik xalqona tafakkur mahsuli bo‘lib, hayotiy tajriba va ogohlantiruvchi mazmunga ega.

Tishini tishiga qo‘ymoq frazeologik birligi sabr-toqat va iroda bilan bog‘liq holatni ifodalaydi. Semantik jihatdan birlik chidamlilik va ruhiy mustahkamlik tushunchalarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Qo‘li qisqa bo‘lmoq frazeologik birligi moddiy yoki imkoniyat cheklangan holatni bildiradi. Jismoniy obraz orqali ijtimoiy-iqtisodiy holat ifodalanishi o‘zbek frazeologiyasiga xosdir.

Ko‘ziga sovuq ko‘rinmoq frazeologik birligi subyektiv baho va yoqmaslik munosabatini anglatadi. Ushbu birlik insonlararo munosabatlarda hissiy baholash vositasi sifatida ishlatiladi.

Boshiga yetmoq frazeologik birligi salbiy oqibat yoki halokatli yakunni bildiradi. Bu birlik ogohlantiruvchi va baholovchi semantik yuklamaga ega bo‘lib, o‘zbek tilida keng qo‘llaniladi.

Yuqorida keltirilgan frazeologik birliklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi birliklar ko‘proq ijtimoiy munosabatlar va pragmatik vaziyatlarga yo‘naltirilgan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi birliklarda hissiy holat va milliy tafakkur bilan bog‘liq obrazlar ustunlik qiladi. Bu farq tillar o‘rtasidagi madaniy va mental tafovutlarni yaqqol namoyon etadi.

Frazeologik birliklarning alohida-alohida tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillarida mazkur birliklar bir xil kommunikativ ehtiyojdan kelib chiqib shakllangan bo‘lsa-da, ularning semantik tuzilishi va obraz manbalari ko‘pincha turlicha yo‘sinda namoyon bo‘ladi. Har bir frazeologik birlik muayyan madaniy tajriba va ijtimoiy qarashlar asosida shakllangan bo‘lib, bu holat ularning ma’no rivojida bevosita aks etadi. Natijada frazeologik birliklar faqat tayyor nutq qolipi emas, balki milliy tafakkurning til orqali ifodalangan shakli sifatida namoyon bo‘ladi [Jumayev B.X., 2018; 39-44].

O‘tkazilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, ingliz tilidagi frazeologik birliklar asosan ijtimoiy munosabatlar, shaxsiy mas’uliyat va pragmatik vaziyatlar bilan bog‘liq semantik komponentlarga ega. Bu birliklar ko‘pincha insonning jamiyatdagi o‘rni, shaxsiy hududni saqlash yoki muayyan vaziyatda ehtiyotkorlik bilan harakat qilish zaruratini ifodalaydi. Bunday semantik yo‘nalish ingliz tilida

individualizm va shaxsiy mustaqillik tushunchalarining muhim o‘rin tutishi bilan izohlanishi mumkin [Nurmatov A.M., 2015; 33-35].

O‘zbek tilidagi frazeologik birliklar tahlili esa ushbu birliklarda insonning ruhiy holati, hissiy kechinmalari va ijtimoiy yaqinlik bilan bog‘liq obrazlar ustun ekanini ko‘rsatdi. O‘zbek tilidagi frazeologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi va milliy tafakkurini aks ettiruvchi muhim til birliklari hisoblanadi [Rahmatullayev, 2008; 7-10]. O‘zbek frazeologiyasida jismoniy a’zolar, kundalik hayot voqealari va xalqona tasavvurlar orqali hissiy holatlarni ifodalash keng tarqalgan bo‘lib, bu holat milliy mentalitetda hissiylik, sabr-toqat va ijtimoiy munosabatlarga beriladigan yuqori ahamiyat bilan chambarchas bog‘liq. Shu bilan birga, ingliz tilidagi frazeologik birliklar strukturaviy va semantik jihatdan barqaror bo‘lib, nutqda tayyor birlik sifatida qo‘llanadi [Smirnitskiy, 1956; 201-205].

Frazeologik birliklar semantik yaxlitlik va barqarorlik xususiyatlariga ega bo‘lib, ularning umumiy ma’nosi tarkibiy qismlar ma’nosidan kelib chiqmaydi [Vinogradov, 1977; 84-87]. Frazeologik birliklar o‘rtasida to‘liq semantik moslikning kam uchrashi ularning milliy-madaniy xususiyatlari kuchli ekanini tasdiqlaydi. Qisman mos yoki muqobilsiz birliklarning mavjudligi frazeologik birliklarni so‘zma-so‘z tarjima qilish imkoniyatining cheklanganligini ko‘rsatadi. Shu bois bunday birliklarni talqin etishda va tarjima qilishda faqat lingvistik emas, balki lingvokulturologik yondashuvdan foydalanish zarurati yuzaga keladi [Salomov G‘., 1983; 56-60].

Frazeologik birliklar madaniy axborot tashuvchi birlik sifatida ham namoyon bo‘ladi [Dobrovol’skij D., Piirainen E., 2005; 120-125]. Shu bilan birga, o‘rganilgan frazeologik birliklarni semantik jihatdan umumlashtirish ularni bir nechta asosiy guruhlarga ajratish imkonini berdi. Tadqiqotda hissiy holatni ifodalovchi birliklar, ijtimoiy munosabatlarga oid birliklar hamda harakat va qaror bilan bog‘liq frazeologik birliklar aniqlandi [Vinogradov V.V., 1977; 84-92]. Ushbu tasnif frazeologik birliklarning til tizimidagi funksional imkoniyatlarini yanada aniqroq tushunishga xizmat qiladi. Lingvokulturologik yondashuv frazeologik birliklar tarkibida madaniy axborot mujassamligini aniqlash imkonini beradi [Jumayev B.X., 2018; 39-42].

Olingan natijalar tadqiqot boshida ilgari surilgan gipotezani tasdiqlaydi. Ya’ni, frazeologik birliklar mazmunida milliy-madaniy komponentlar muhim o‘rin egallaydi va bu komponentlar har bir tilda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Frazeologik birliklarni tarjima qilishda mazmuniy muqobillikni saqlash ko‘pincha so‘zma-so‘z tarjimaga nisbatan ustuvor hisoblanadi [Salomov G‘., 1983; 56-58]. Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar o‘rtasidagi farqlar til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaqqol ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqot ma’lum miqdordagi frazeologik birliklar bilan cheklangan bo‘lib, bu holat natijalarning umumlashtirilish darajasini qisman chegaralaydi. Tadqiqot doirasida asosan faol qo‘llaniladigan frazeologik birliklar tanlab olingani sababli, kam qo‘llaniladigan yoki dialektal birliklar tahlil doirasidan tashqarida qoldi. Shuningdek, frazeologik birliklarning tarixiy rivoji va diaxron o‘zgarishlari mazkur ishda alohida tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqilmadi.

Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda frazeologik birliklarning tarixiy shakllanish jarayoni, ularning turli davrlardagi semantik o‘zgarishlari hamda boshqa tillar bilan kengroq qiyosiy tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik masalasi mumtoz manbalarda ham alohida ta’kidlangan bo‘lib, bu holat frazeologik birliklar tabiatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi [Navoiy, 1967; 12-14]. Bundan tashqari, frazeologik birliklarni tarjima va o‘qitish jarayonida qo‘llash masalalarini chuqurroq o‘rganish ham ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

NATIJALAR

Mazkur tadqiqot davomida ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar qiyosiy va lingvokulturologik yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot materiali sifatida tanlab olingan 15 ta frazeologik birlik semantik xususiyatlari, obrazlilik darajasi hamda milliy-madaniy mazmuniga ko‘ra tahlil qilindi.

O‘rganish jarayonida frazeologik birliklarning har ikki tilda ifodalanish usullari, ma’no barqarorligi va kontekstual qo‘llanishi aniqlab olindi. Natijalar frazeologik birliklarning semantik mosligi va ularning til tizimidagi o‘rni bo‘yicha umumlashtirilib, jadval ko‘rinishida tizimlashtirildi.

Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar o‘rtasida to‘liq moslik kam uchrashini, aksariyat hollarda esa qisman moslik yoki muqobilsizlik holatlari kuzatilishini ko‘rsatdi. Bu esa frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari kuchli ekanini tasdiqlaydi.

Quyida keltirilgan jadvalda tanlab olingan frazeologik birliklarning semantik moslik darajasi va asosiy semantik xususiyatlari umumlashtirilgan holda beriladi.

1-jadval. Ingliz tilidagi frazeologik birliklar va ularning semantik xususiyatlari.

№	Inglizcha frazeologik birlik	Qisqacha ma’nosi	Asosiy semantik xususiyat
1	to skate on thin ice	xavfli ish tutmoq	xavf, beqarorlik
2	to carry coals to Newcastle	keraksiz ish qilmoq	Ortiqchalik
3	to steal someone’s thunder	birovning yutug‘ini egallamoq	ijtimoiy raqobat
4	to let the cat out of the bag	sirni oshkor qilmoq	maxfiylik buzilishi
5	to bark up the wrong tree	xato yo‘l tutmoq	noto‘g‘ri taxmin
6	to have skeletons in the closet	yashirin aybi bo‘lmoq	Yashirinlik
7	to draw the short straw	omadsiz tanlovga tushmoq	Tasodif
8	to keep someone at arm’s length	masofani saqlamoq	ijtimoiy masofa
9	to hit the nail on the head	to‘g‘ri topmoq	Aniqlik
10	to walk on eggshells	ehtiyotkor bo‘lmoq	Noziklik
11	to burn bridges	aloqani uzmoq	keskin qaror
12	to miss the boat	imkoniyatni boy bermoq	Kechikish
13	to spill the beans	sirni ochmoq	Oshkoralik
14	to bite off more than one can chew	kuchidan ortiq ish olmoq	haddan oshish
15	to have a chip on one’s shoulder	ranjib yurmoq	salbiy hissiyot

1-jadvalda ingliz tilidagi tanlab olingan frazeologik birliklarning qisqacha ma’nosi va ularning asosiy semantik xususiyatlari umumlashtirildi. Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi frazeologik birliklarning katta qismi abstrakt tushunchalar, xususan, xavf, ijtimoiy munosabatlar, hissiy holat va shaxsiy qarorlar bilan bog‘liq semantik yuklamaga ega. Shuningdek, frazeologik birliklarda

obrazlilik va ko‘chma ma’no ustunligi kuzatiladi, bu esa ularning nutqdagi ekspressiv imkoniyatlarini oshiradi.

2-jadval. O‘zbek tilidagi frazeologik birliklar va ularning semantik xususiyatlari

№	O‘zbekcha frazeologik birlik	Qisqacha ma’nosi	Asosiy semantik xususiyat
1	ko‘ngli ko‘tarilmaslik	xafa bo‘lmoq	ruhiy holat
2	yuragi orqasiga tortmoq	qo‘rqib ketmoq	qo‘rquv
3	og‘zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi	ehtiyotkor bo‘lmoq	tajriba
4	tishini tishiga qo‘ymoq	Chidamoq	sabr
5	qo‘li qisqa bo‘lmoq	imkoni yo‘q bo‘lmoq	cheklov
6	ko‘ziga sovuq ko‘rinmoq	Yoqmaslik	subyektiv baho
7	boshiga yetmoq	halokatga olib kelmoq	salbiy oqibat
8	yelkasi qisilib ketmoq	qo‘rqib qolmoq	ruhiy bosim
9	joni og‘ziga kelmoq	juda qo‘rqmoq	keskin hissiyot
10	eti jimirlamaslik	befarq bo‘lmoq	hissiy sovuqlik
11	ko‘ngliga tugmoq	niyat qilmoq	ichki qaror
12	boshi osmonga yetmoq	juda xursand bo‘lmoq	ijobiy hissiyot
13	ko‘ngli joyiga tushmoq	Tinchlanmoq	ruhiy barqarorlik
14	yer bilan yakson qilmoq	butunlay yo‘q qilmoq	keskinlik
15	jonini jabborga bermoq	fidokorlik ko‘rsatmoq	qahramonlik

2-jadvalda o‘zbek tilidagi tanlab olingan frazeologik birliklar va ularning asosiy semantik xususiyatlari umumlashtirilgan. Jadval ma’lumotlari o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarda insonning ruhiy holati, hissiy kechinmalari hamda ijtimoiy munosabatlariga oid semantik belgilar ustun ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘zbek frazeologik birliklarida milliy tafakkur va madaniy tajribaga xos obrazlarning faol qo‘llanilishi kuzatilib, bu holat ularning lingvokulturologik ahamiyatini tasdiqlaydi.

1- va 2-jadvallarda keltirilgan ma’lumotlar asosida ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari tizimli ravishda umumlashtirildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda frazeologik birliklar ko‘chma ma’no va obrazlilikka asoslangan bo‘lib, ularning mazmuni tarkibiy qismlarning lug‘aviy ma’nolaridan kelib chiqmaydi.

Jadval ma’lumotlari ingliz tilidagi frazeologik birliklarda ijtimoiy munosabatlar, shaxsiy xatti-harakat va qaror qabul qilish bilan bog‘liq semantik belgilar ustun ekanini ko‘rsatdi. O‘zbek tilidagi frazeologik birliklarda esa insonning ruhiy holati, hissiy kechinmalari va milliy tafakkur bilan bog‘liq obrazlar ko‘proq uchrashi qayd etildi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari frazeologik birliklar o‘rtasida to‘liq semantik moslik kam uchrashini ko‘rsatdi. Aksariyat birliklarda qisman moslik yoki muqobilsizlik holatlari kuzatildi. Bu holat frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari kuchli ekanini va ularni qiyosiy jihatdan o‘rganishda lingvokulturologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, jadval asosida olingan natijalar frazeologik birliklarning til tizimidagi o‘rni va ularning semantik imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi hamda keyingi munozaralar uchun asos yaratdi.

XULOSA

Mazkur ilmiy tadqiqot ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning semantik hamda lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy asosda o‘rganishga bag‘ishlandi. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklar tilning barqaror va obrazli qatlamini tashkil etib, xalqning tarixiy tajribasi va milliy tafakkurini aks ettiruvchi muhim birliklar ekanini ko‘rsatdi.

O‘tkazilgan tahlillar ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar umumiy semantik yaxlitlikka ega bo‘lsa-da, ularning obraz manbai va madaniy asoslari ko‘pincha farqlanishini aniqladi. Tahlil qilingan 15 ta frazeologik birlik misolida to‘liq semantik moslik kam uchrashi, aksariyat hollarda esa

qisman moslik yoki muqobilsizlik holatlari mavjudligi qayd etildi. Bu holat frazeologik birliklarning shakllanishi bevosita milliy-madaniy muhit bilan bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tahlillar ingliz tilidagi frazeologik birliklarda ijtimoiy munosabatlar va pragmatik vaziyatlarga oid semantik komponentlar ustun ekanini, o‘zbek tilidagi birliklarda esa hissiy holat va ijtimoiy yaqinlik bilan bog‘liq obrazlar ko‘proq uchrashini ko‘rsatdi. Frazeologik birliklarni semantik jihatdan guruhlash natijasida hissiy holatni, ijtimoiy munosabatlarni hamda harakat va qarorni ifodalovchi birliklar aniqlanib, bu tasnif ularning funksional imkoniyatlarini yoritishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari frazeologik birliklar mazmunida milliy-madaniy komponentlar muhim o‘rin tutishini tasdiqladi hamda ularni tarjima qilishda lingvokulturologik yondashuv zarurligini asoslab berdi. Shu bilan birga, tadqiqot doirasining cheklanganligi sababli kam qo‘llaniladigan va tarixiy frazeologik birliklar qamrab olinmadi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarni qiyosiy va lingvokulturologik jihatdan o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yanada chuqurroq anglash imkonini berishini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jumayev, B. X. (2018). Frazeologiya va frazeologik birliklar masalalari. Tashkent, Uzbekistan: Fan. 180 p.
2. Madvaliyev, A. (Ed.). (2006). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Tashkent, Uzbekistan: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 680 p.
3. Navoiy, A. (1967). Muhokamat ul-lug‘atayn. Tashkent, Uzbekistan: Fan. 152 p.
4. Navoiy, A. (1983). Mahbub ul-qulub. Tashkent, Uzbekistan: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot. 240 p.
5. Nurmatov, A. M. (2015). Zamonaviy o‘zbek tili. Tashkent, Uzbekistan: Fan. 420 p.
6. Rahmatullayev, S. (2008). O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. Tashkent, Uzbekistan: O‘qituvchi. 528 p.
7. Salomov, G‘. (1983). Tarjima nazariyasi asoslari. Tashkent, Uzbekistan: Fan. 240 p.
8. Smirnitskiy, A. I. (1956). Лексикология английского языка. Moscow, Russia: Izdatel’stvo literatury na inostrannykh yazykakh. 320 p.
9. Vinogradov, V. V. (1977). Русский язык. Лексическое учение о слове. Moscow, Russia: Vysshaya Shkola. 312 p.
10. Dobrovol’skij, D., & Piirainen, E. (2005). Cultural knowledge and idioms. Berlin, Germany: Mouton de Gruyter. 430 p.